

DORBOZLIK SAN'ATI XUSUSIDA

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi

1- bosqich talabasi

Raximberdiyev Ozodbek Rasuljon o'g'li

Raximberdiyevvozod783@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola dorbozlik san'atining paydo bo'lishi, tarixi, yurtimizda rivojlanish bosqichlari va zamonaviy hayotimizdagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot natijasida dorbozlikning vodiy bo'ylab keng yoyilishi, Andijon viloyatining Marhamat tumani bilan o'zaro bog'liqligi bayon qilinadi. Shuningdek, tarixning diniy qarashlar bilan birga uyg'unlashuvi, shu bilan birga, Mingtepa tarixi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Dorbozlik, Hazrati Ali, dorbozlik maktabi, Andijon samosi, Mingtepa.

Dorbozlik! Xalqimizning qadimiy bu san'ati avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Bu san'at turi kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Dorbozlik san'ati bundan taxminan 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo'lgan, so'ng butun dunyoga tarqalgan. Dorlar dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo'lgan. Davr o'tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o'yinlari murakkablasha borgan. Bu san'at keyinchalik yurtimizga ham kirib kela boshladi.

O'zbekistonda dorbozlik qadim tarixga ega. Ba'zi manbalar Amir Temur saroyida ajoyib dor o'yinlari ko'rsatilganini tasdiqlaydi. Shuningdek, bu davrda musiqa san'ati ham ancha rivojlandi va dorbozlik o'yinlari bilan birgalikda musiqaviy holatlar ham tarqala boshladi. Dorbozlik O'zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa, Quva, Asaka, Marhamat, Buloqboshida taraqqiy etgan. O'tmishda o'zbek dorbozlari Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron, 18–19-asrlarda Rossiyada o'z mahoratlarini namoyish etganlari to'g'risida ma'lumotlar bor. O'zbek dorbozlari 25–30 m balandlikdagi ustunlarga qiya qilib tortiladigan arqon ustida langar-chup bilan bo'ladigan o'yinlarni: pog'urish (oldinga, orqaga), sakrash, oyoqlarga pichoq yoki patnis bog'lab, shuningdek, ko'zni bog'lab, boshga xalta yoki qozon kiyib yurish, yakka va qo'sh chig'irida o'ynash kabi turli-tuman mashqlarni bajargan. Dor o'yinlari dor tagida raqqoslarning o'yinlari, qiziqchilar, askiyachilarning chiqishlari hamda an'anaviy sirk turlaridan simdor, yog'ochoyoq, nayrangbozlik, besuyak, muallaqchilik, o'rgatilgan ayiq, ilon, maymun, ot,

echki o'yinlari bilan birga olib borilgan.

Yana bir rivoyatga e'tibor qaratishimiz kerak. Hazrati Ali Mingtepani qamal qilgan paytda ikki tomonda yog'och qo'yib, ip tortadi. O'sha ipdan o'tish dor san'atini yuzaga keltirgan bo'lishi mumkinligi haqida xalq orasida bir qancha fikrlar bor.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Mingtepa qadimgi Davan davlarining poytaxti hisoblanadi. Bu davlat miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrlarda dunyo xaritasida mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, u yerda do'mlik va tepaliklar ko'p bo'lganligi sababli ham xalq orasida Mingtepa nomi berilgan.

Dorbozlikka umrini fido qilgan insonlardan bir Yunusali G'oziyev tog'aning uyida bo'ldik va u yerda juda ko'plab dorga oid ma'lumotlar va rasmlarni topdik. Quyidagi rasmda Andijon davlat universiteti Falsafa fanlari doktori, professor Mirzayeva Salima Rayimjonovna, dorboz Yunusali G'oziyev, Andijon davlat universiteti talabasi Raximberdiyev Ozodbek Rasuljon o'g'li tasvirlangan.

Yunusali tog'a 1940-yilda Andijon viloyatida Polvonovlar xonadonida tug'ilgan va shu kungacha dorbozlik bilan shug'ullanib keldi. Yunusali tog'a turli shaharlarda bo'lib, ko'plab konkurslarda g'olib bo'lganmiz deb aytib o'tib ketadi o'z nutqida. 1954-yilda Marhamat tumaniga Hakimjon Parpiyev va Odiljon, Olimjon, Asqar Ziyod, Abdusalom qiziqchilar tomoshabinlarning ko'nglini olish va xushkayfiyat ulashish maqsadida tashrif buyuradi va o'shanda Yunusali G'oziyev birinchi bor dorga chiqadi. 14 yoshli bolani dorga chiqishi hayot masalasi bo'lganligi uchun bozorkom, nachalni melitsiya, dadasi va akasidan tilxat olishib oladi. Omadi kelib ushbu jamoaga qabul qilingach, ular bilan birga Buloqboshiga ketadi. Ular bilan 4-5 yil birga yurganligini o'z nutqida ta'kidlab o'tdi. Yunusali tog'a bu guruhda nafaqat dorboz, balki kurashchi-polvon bo'lganini, og'ir atletika, ya'ni tosh ko'tarish ishlarini ham bajarganini aytadi. "Toshlarning og'irligi 35 kilodan boshlanadi va bu toshlarni huddi koptokdek o'ynatar edi", - deb yozadi Z. Rahimova . Yunusali tog'a 1961-1962-yillarda Andijon viloyatida joylashgan Jismoniy tarbiya va sport universitetiga o'qishga kirgan va u yerda o'qish paytida ham dorbozlikdan qiziqishi sovimagani edi. Tadir taqazosi bilan ikkinchi kurslik paytida universitetga sirk truppassi keladi va u yerda ham Yunusali tog'a o'zini ko'rsatadi. Dorbozlikka qiziqishi tufayli o'qishini tashlab ular bilan birga ketadi. 1964-yildan 1982-yil may oyigacha o'zbek sirkida faoliyat yuritdi va shu yili 39 yoshida pensiyaga chiqadi. O'sha paytda Obidjon Toshkentboyev bilan ishlagan. Qaytib kelishiga asosiy sabab sifatida otasini keltiradi, otasining yoshi o'tib qolgani va endi bolamni qaytib beringlar degan so'zlari uni uyida qolishiga majbur qiladi. Yunusali G'oziyevning otasi Polvonov Saidg'oz bo'lib, vodiya polvon kurashchi bo'lib nom qozongan. Asli kasbi mirob bo'lishiga

qaramay, kurashda ham tengi yo‘q bo‘lgan deb aytib o‘tdi suhbatdoshimiz. Otasining xohishi bilan uyida (Andijon viloyati Marhamat tumanida) qoldi va 1885-yilda “Andijon samosi” sirk jamoasini tashkil qildi. Yosh jamoani uyushtirish, uni oyoqqa turg‘azish, jamoani mukammal reja bilan ta‘minlashda Yunusali G‘oziyevning o‘rni beqiyos edi. U o‘zining 23 yillik faoliyati davomida juda ko‘plab joylarda ishladi va bir qancha davlatlarda bo‘lib xalqqa turli o‘yinlarni ko‘rsatish davomida ustozi bo‘lgan O.Toshkentboyevdan olgan o‘gitlariga tayanib ish qildi.

Shunday qilib, ushbu tumanda 12 kishidan iborat sirk dorbozlar guruhi paydo bo‘ldi. Bu guruh nafaqat dorbozlik bilan mashhur, balki unda sakkiz turdagi sirk janrlaridan tashkil topgan va tomoshabinlarga ko‘rsatib kelingan. Dor o‘yinlari, og‘ir atletika, ya‘ni tosh ko‘tarish, egiluvchanlik, janglyorlik o‘yinlari, sirk o‘yinlari shular jumlasidan. Bularning barcha shakllari, turlarini “tomosha” degan birginaistilox bilan belgilaymiz. Bu o‘yilarni ko‘rsatishda o‘z ustalari bor edi va ularning ismini quyida keltirib o‘taman. Egiluvchan simda mashqlar Xasanjon Sharofiddinov, akrobat Abdusattor Oypo‘latov, “Egiluvchan qiz” Barchinoy G‘oziyeva, janglyor Zaynobiddin Dexqonov, sharq o‘yinlari ustasi Shavkat Abdurahmonov, “Qayroq tosh” ustasi Sobirjon Olimjonov, qiziqchilar Nabijon va Zaynobiddin G‘oziyevlar chiqishlari qiziquvchilarda katta taassurot qoldirgan. Ushbu sirk truppasi tuman, viloyat va respublika tanlovida birin-ketin g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. 1987-yilda oilaviy guruh bilan Moskvada bo‘lib o‘tgan “Jahon folklor ansambili” da qatnashdi. Ushbu ansambilda 85 ta davlatdan ishtirokchilar kelgan. Keyinchalik 1988-yilda Hindistonda ikki oy davomida safar tashkil qilindi. Bundan tashqari, Vyetnam, Laos, Kampuchiya hamda Amerika davlatlarida bo‘ganini ham suhbat davomida aytib o‘tdi. “Ulug‘ Oktyabr revolyutsiyasining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilagan Butunittifoq ko‘rigiga yo‘llanma olgan. Shu kunlarda ular Moskva va Tolyatti shaharlarida bo‘lib o‘tadigan bu ko‘rikka ham qizg‘in tayyorgarlik korib, yangi programma ustida ishlamoqda edi”, - deb yozadi.

“Yunusali tog‘adan hamkasblaringiz bormi?” deb so‘radik va juda ko‘plab dorboz va polvonlar nomini bilib oldik. Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh viloyatida polvon Sherxon, Qozog‘istonda Hojimurod polvonlarni keltiradi. Jonajon O‘zbekistonda esa To‘lanboy Qurbonovni ismini zikr qilib o‘tdi va bu odam sirkni tark etganda Yunusali tog‘a o‘rniga qo‘shilganini aytdi. Samarqandda Juma polvon, Toshkentda Anaxror, Farg‘onaning Shohimardonida Lochin polvon, Namanganda Jora xo‘ja, Tursunali polvonlarni keltirib o‘tadi. Bir dona ip, 30-35 metr balandlikda yurish uchun insonda katta jasorat va kuch bo‘lishi kerak. Yunusali tog‘a dorga chiqishdan oldin o‘qiladigan ma‘lum bir duolari yo‘qligini, o‘zi biladigan duolarni o‘qish kerak

deb fikr bildirdi. Gaplariga qo‘shimcha qilib, dorga chiqqandan keyin qo‘yilgan vazifani bajarish asosiy vazifaga aylanadi. Yiqilish, o‘lim haqida o‘ylashga o‘rin yo‘qligini aytib o‘tdi. Yunusali tog‘a shu paytda dordan yiqilgan paytini ham esladi. 14 metrdan pastga yiqilib, qo‘li shikastlangan va naq 7 oy deganda yana dorbozlikka qaytgan. Hozirda ushbu silsilani davom ettirayorgan eng yosh vakil Nodiraxon bo‘lib, u hozirda atigi 9 yosh hisoblanadi. Quyida joylashgan rasmdagi jajji qiz Nodiraxon hisoblanadi.

Shuningdek, Yunusali tog‘a o‘z xonadonida ziyoratchilar va qiziquvchilar uchun shinam va solim joylarni qurib qo‘ygan. Xonadoni haqida ba’zi tariflarni aytganimizdan keyin bundan to‘lqinlanib, o‘z qo‘llari bilan yaratgan mo‘jizalarini ko‘rsata ketdi va tog‘aning uyiga keluvchi tomoshabinlarning ko‘pligini yana bir sababini ko‘rib chiqdik. Hozirda uyida 500 o‘ringa mo‘ljallangan sahnani yaratgan. Bu uyni bahor va kuz oylarida bolalar kulgisi to‘ldirib yuboradi va tomoshabinlar ko‘pligidan oyoq qo‘yishga joy topolmaysan kishi.

Ushbu xalq orasidagi mehnati, dorbozlik san’atini yuksaltirish yo‘lida qilgan samarali mehnati uchun Yunusali G‘oziyev 2025-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Do‘stlik” ordeni va mukofot puli bilan taqdirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston milliy entsiklopediya. 364-bet – Toshkent.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
2. Vodiy gavhari. Ilmiy-siyosiy jurnali. 13,16-betlar – Farg‘ona.: 2018.
3. Rustambek Shamsutdinov, X.Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi. 194-bet – Toshkent.: 2019
4. Muxsin Qodirov. Temuriylar davri tomosha san’ati. 6-bet – Toshkent.: 2007
5. Bohodir Sarimsoqov. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent.: “Fan” nashriyoti. 1986
6. Imomov K. Mirzayev T.Sarimsoqov B. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - Toshkent.: «O'qituvchi», 1990.